



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(7)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 274 sahifa,
27-iyun, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Muqobil energiya manbalarida yarimo'tkazgichlar fizikasi: quyosh panellarining foydali ish koeffitsiyentini oshirish muammolari	10
<i>Abdullajonova Bashorat Olim qizi</i>	
Xavfsizlik tuyg'usining psixologik mazmuni	13
<i>Bahodirova Marhaboxon Tohirjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik texnologiyalari: kompetensiyaviy yondashuv asosida	17
<i>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</i>	
Tasviriy san'at fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	21
<i>Ergasheva Go'zal Ruzimurod qizi</i>	
Kurash sportida innovatsion mashg'ulot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari	26
<i>Madumarov Jahongir Urinbayevich</i>	
O'quvchilarning texnik tafakkurini rivojlantirishda steam texnologiyalarining o'rni va roli	29
<i>Yo'ldoshev Mirjalol Qosim o'g'li</i>	
Sun'iy intellekt vositalarining bo'lajak o'qituvchilar diagnostik kompetentligini rivojlantirishdagi imkoniyatlari	33
<i>Teshaboyev Akramjon Yuldashevich</i>	
O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi kommunikativ o'zaro ta'sir	39
<i>Turdibekova Risolat Shermatovna</i>	
6–7 yoshli bolalarni savodga tayyorlashda didaktik kartochkalar asosidagi leksik o'yinlarning ahamiyati	42
<i>Tursunova Durdona</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlarida zamonaviy ilmiy yondashuvlar: maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va sport natijalari	46
<i>Xalmirzayev Azizillo Nabijonovich</i>	
Veb-kvest" va "Til portfeli" texnologiyalarini bir butun integrativ model asosida o'quv mashg'ulotlarida qo'llanilishi	49
<i>Yusupova Muxabbat Anatolevna</i>	
Содержание личностно-ориентированного образования и его роль в процессе самостоятельной подготовки студентов	53
<i>Рысова Галия Байбулатовна</i>	
Improving the Methodology for Teaching Lexical and Grammatical Transformations in the Translation of Literary Texts	57
<i>Asadova Zebiniso Makhmudovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish mexanizmlari	62
<i>Beketov Nurseit Alijan o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida boksni o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	67
<i>Rustamova Zuhro Sanjar qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion yondashuv asosida o'qish darslari samaradorligini metodik takomillashtirishga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	71
<i>To'ychiyeva Zulfiyaxon Abdulxoliq qizi</i>	
Mehrli maktabda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmlari	76
<i>Tursunova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Kasbiy fanlar integratsiyasiga asoslangan dasturiy ta'minot vositasida filologiya yo'nalishi talabalarining axborot kompetentligini rivojlantirish metodikasi	79
<i>Yakubov Baxtiyor Baxriddin o'g'li</i>	
Ta'lim klasterlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish tizimini joriy etish	83
<i>M. Badalova</i>	



Нравственное воспитание студентов средствами русской классической литературы: современные педагогические подходы.....	86
Родина Ирина Витальевна	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining kasbiy identikligini shakllantirishda psixologik diagnostika va rivojlantiruvchi yondashuvlar	91
Feruz Tohirova	
Tarbiya fanini o'qitish jarayonida xalq pedagogikasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	99
Islomova Mushtaribonu Akram qizi	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	104
Nafisa Tuxtasinova	
Shaxsiy kreativ kompetentlikni rivojlantirishning metodik imkoniyatlari	108
To'xtasinov Dadaxon Farxodovich, Nafisa Tuxtasinova	
Zamonaviy ta'lim oluvchilarni milliy iftixor ruhida tarbiyalashning yangicha yondashuvi	113
Xudayberdiev Inom Xasanovich	
Yoshlar oilalarda ekologik madaniyati rivojlanishida turar joy muhiti va gender yondashuvlarining ahamiyati	117
Yusupova Muhabbatxon Abdulajon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida O'simliklar mavzusini o'rgatish metodikasi	122
Normurotova Aziza Karim qizi, Fattoyeva O'g'iloy Ashurqulovna	
Inklyuziv ta'lim o'quvchilarining yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda robototexnika asosidagi assistiv texnologiyalar - "Power band" va "Quvvat qo'lqop" samaradorligi.....	127
Alimardanova Sitara Ikrom qizi, To'rayev Rasul Nortoijevich	
Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sport mashg'ulotlarining innovatsion ahamiyati	133
Aminov Botir Umidovich	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish	138
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna	
Ilmiy-tadqiqotchi ayollarda akademik o'zlik shakllanishi: O'zbekiston sharoitida motivatsion omillar va ijtimoiy-pedagogik aralashuv zarurati	142
Egamqulova Iroda Safar qizi	
Texnika oliygohlarida nogironligi mavjud talabalarining ilmiy kompetentligini rivojlantirish uchun "Adaptiv tadqiqot" interaktiv metodini ishlab chiqish.....	148
Gimayeva Liliya Maskurovna	
Maktab boshqaruvida raqamli monitoring va tahlil tizimlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi...	153
Imamaliyev Ulugbek Turapbayevich	
Onlayn qimor o'yinlariga tobe bo'lgan harbiy xizmatchilar bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish tartibi..	157
Olimov Azamat Qahramon o'g'li	
Rusiya o'quvchilarning o'zbekcha bog'lanishli nutqini o'stirishda mashqlarning o'rni	163
Salisheva Zilola Ismoilovna	
Xorijiy mamlakatlar tajribasida raqamli ta'lim va raqamli savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari....	169
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi	
Ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantirish modelini amalga oshirishning tashkiliy va pedagogik mexanizmlari va kutilgan natijalari	174
Vasilyeva Elmira Raisovna	
The Specifics of the Formation of Systems Thinking in Technical Education, Methods and Means of Development.....	178
Yusupova Liliya Fanovna	
Individual yondashuv asosida ko'zi ojiz o'quvchilar uchun individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish metodikasi.....	183
Abdullayev Oybek Alisher o'g'li	

Yaqin masofalarga yugurishda o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish usullari.....	190
<i>Abduqahhorov Nuriddin Xabibulloyevich</i>	
Darslik yozish mas'uliyati.....	194
<i>Ahmadova Mahbuba Shavkat qizi</i>	
Mobil ta'lim texnologiyalari vositalari yordamida darslarni tashkil etish metodikasini takomillashtirish	198
<i>Mamasoliyev Akmaljon Azizjon o'g'li</i>	
Yengil atletika qisqa masofaga yugurish turini o'rgatishda bosqichma-bosqich tayyorlash metodikasi	202
<i>Omonov Shohrux Orzimurot o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning o'zbek tamaddunidagi o'rni xususida ba'zi mulohazalar	206
<i>Tasbolatova Yeliza Yesey qizi</i>	
The Relationship Between Students' Learning Motivation and Academic Procrastination.....	209
<i>Odilbekov Mansurbek Maxmudjon ugli</i>	
"Beg'uborlik ovozi" va o'zini namoyon etish makoni.....	215
<i>Q. M. Ibadullayev</i>	
Формирование лингвокультурологи-ческой компетенции иноязычных студентов в цифровой образовательной среде	219
<i>Наталья Николаевна Розикова</i>	
Criteria, Indicators, and Levels for Developing Pre-Service EFL Teachers' Auditive Competence	223
<i>Alibekova Mahzuna Alisher kizi</i>	
Summary of the Cell Elements in Dental Science	229
<i>Ruziyeva Kamola Akhtamovna</i>	
A Customised Method for Treating Generalised Periodontitis and Predicting Cardiovascular Problems Using Salivary Proteomic Profiling	234
<i>Shodiev O. U., Nazarova N. Sh., Agababyan I. R.</i>	
Avtomobilsozlik yo'nalishi talabalarida kommunikativ kompetensiyani raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	239
<i>G. Sh. Doniyorova</i>	
Imkoniyati cheklangan bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish xususiyatlari	242
<i>Dusanov Shuxrat Abdiraakovich</i>	
Ijro etuvchi funksiyalar buzilishi va diqqat-yetishmasligi giperaktivlik buzilishi (DEHB): Barkli yondashuvi...	246
<i>Otbasarova Umida Mexmonovna, Inogamova Rano Bahodirovna</i>	
Raqamli texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari..	248
<i>Abdullayev Sherzodbek</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda "Hard Skills" va "Soft Skills" integratsiyasini ta'minlashning pedagogik-psixologik tizimi.....	251
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlari.....	258
<i>Djumabayeva Janar Muratbayevna</i>	
O'zini o'zi tashkil etishni rivojlantirish pedagogik texnologiyasi	262
<i>Jo'rayeva Gulxayo Sabirovna</i>	
Raqamli va kasbiy kompetensiyani shakllantirish tamoyillari: zamonaviy pedagogik modellar qiyosiy tahlili misolida.....	265
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	
Qoraqalpoq prozasining psixologik paradigmasi	269
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	



QORAQALPOQ PROZASINING PSIXOLOGIK PARADIGMASI

Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI "Filologiya" fakulteti
"Qoraqalpoq tili va adabiyoti" mutaxassisligi 2 A kurs talabasi
(Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri)

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoraqalpoq nasrining fundamental kategoriyalaridan biri bo'lgan badiiy psixologizmning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Muallif shaxs ma'naviy olamini badiiy aks ettirish usullarining tadrijiy rivojlanishini yoritib, adabiy xarakter shakllanishida psixologik tahlilning metodologik ahamiyatini asoslab beradi.

Tadqiqotda qoraqalpoq adabiyoti realistik an'analar asosida rivojlanib, inson ruhiyatining murakkab dialektikasini ifodalash uchun ichki monolog, psixologik detal, portret xarakteristikasi hamda peyzaj simbolikasi kabi o'ziga xos badiiy vositalarni shakllantirgani ilmiy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, qahramonning individual psixologik tajribasi bilan milliy-tarixiy kontekstning o'zaro uyg'unligi, qahramon taqdirining xalqning ma'naviy qiyofasi ifodasi sifatida namoyon bo'lishi tahlil etiladi.

O'zbek va qoraqalpoq adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlari asosida psixologik tasvirning ko'p qatlamli vositalaridan foydalanish zamonaviy qoraqalpoq nasrining estetik yetukligi va antropologik haqqoniyligini belgilovchi muhim omillardan biri ekanligi asoslanadi. Maqolada badiiy psixologizm matnning g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan borliqni axloqiy-falsafiy idrok etish jarayonini bog'lovchi estetik kategoriya sifatida tizimli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq nasri, badiiy psixologizm, qahramon ma'naviy olami, ichki monolog, milliy o'ziga xoslik, adabiy xarakter, realistik metod, antropologik poetika.

Abstract: This article examines the theoretical and practical aspects of artistic psychology as one of the fundamental categories of Karakalpak prose. It analyzes the evolution of artistic methods for representing the spiritual world of an individual and substantiates the methodological significance of psychological analysis in the formation of literary character. The study demonstrates that.

Karakalpak literature, developing within the traditions of realism, has created a distinctive system of artistic techniques for portraying the complex dialectics of the human psyche, including interior monologue, psychological detail, portrait characterization, and landscape symbolism. Particular attention is given to the interaction between the protagonist's individual psychological experience and the national-historical context, in which the character's destiny reflects the spiritual identity of the people.

Based on the theoretical works of Uzbek and Karakalpak literary scholars, the article argues that the use of multilayered techniques of psychological representation is one of the principal factors determining the aesthetic maturity and anthropological authenticity of contemporary Karakalpak prose. Artistic psychology is interpreted as an aesthetic category that integrates the ideological and artistic content of a literary text with the moral and philosophical interpretation of reality.

Key words: Karakalpak prose, artistic psychology, protagonist's spiritual world, interior monologue, national identity, literary character, realist method, anthropological poetics.



Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты художественного психологизма как одной из фундаментальных категорий каракалпакской прозы. Анализируется эволюция способов художественного отражения духовного мира личности, а также обосновывается методологическая роль психологического анализа в процессе формирования литературного характера.

Доказывается, что каракалпакская литература, развиваясь в русле реалистических традиций, выработала собственную систему художественных средств для раскрытия сложной диалектики внутреннего мира человека, включая внутренний монолог, психологическую деталь, портретную характеристику и символику пейзажа. Особое внимание уделяется взаимосвязи индивидуального психологического опыта героя с национально-историческим контекстом, в котором судьба персонажа выступает отражением духовного облика народа.

На основе анализа теоретических трудов узбекских и каракалпакских литературоведов доказывается, что использование многослойных средств психологического изображения является одним из ключевых факторов эстетической зрелости и антропологической достоверности современной каракалпакской прозы. Художественный психологизм рассматривается как эстетическая категория, обеспечивающая единство идейно-художественного содержания произведения и нравственно-философского осмысления действительности.

Ключевые слова: каракалпакская проза, художественный психологизм, духовный мир героя, внутренний монолог, национальная самобытность, литературный характер, реалистический метод, антропологическая поэтика.

KIRISH

Badiiy adabiyotning muhim vazifalaridan biri shaxsning ma'naviy olamini, uning hissiy dinamikasi va axloqiy refleksiyasining chuqur mexanizmlarini badiiy aks ettirishdan iborat. Inson psixologiyasi muammosi jahon adabiyotshunosligida ham, turkiy xalqlar adabiyoti tadqiqotlari doirasida ham markaziy o'rin egallab, fanlararo ilmiy bahslarning dolzarbligini belgilaydi. Nasriy janr o'zining immanent xususiyatlari bilan so'z san'atining boshqa shakllaridan ajralib turadi. Zero, aynan nasr xarakterni ko'p qirrali ochib berish, ruhiy holatlarni kompleks modellashtirish hamda ziddiyatli hayotiy vaziyatlar sharoitida qahramonning ichki fenomenologiyasini batafsil tasvirlash uchun noyob badiiy imkoniyatlarga ega. Tizim hosil qiluvchi omil sifatida badiiy psixologizm nafaqat asarning yuksak estetik qiymatini belgilaydi, balki personajning aksiologik va psixologik qirralarini chuqur taqqin etishda asosiy metodologik kalit vazifasini ham bajaradi. Ichki dunyoni sinchkovlik bilan tasvirlash orqali muallif oddiy hikoyachilikdan inson qalbining murakkab dialektikasini badiiy qayta yaratish bosqichiga o'tadi. Natijada badiiy matn chuqur antropologik tadqiqot obyektiga aylanib, adabiy asarning mazmuniy va estetik ko'p o'lchamliligini ta'minlaydi ^[1].

Qoraqalpoq adabiyoti boy tarixiy-madaniy ildizlarga ega bo'lib, o'zining butun taraqqiyot yo'li davomida shaxs taqdiri, xalq turmushining o'ziga xosligi hamda milliy qadriyatlar tizimiga doimiy e'tibor qaratib kelgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qoraqalpoq nasrida poetikaning sifat jihatdan yangi bosqichi kuzatiladi. Bu jarayon, avvalo, muallif e'tiborining personaj psixologiyasiga qaratilishi kuchaygani hamda inson qalbining eng nozik kechinmalarini badiiy ifodalashga intilishida namoyon bo'ladi. Mazkur davr adabiy jarayoni yozuvchilarning ijtimoiy-madaniy muhitdagi o'zgarishlarni, shaxsning ma'naviy determinantlarini, shuningdek, individual ong bilan voqelikning obyektiv shart-sharoitlari o'rtasidagi doimiy ziddiyat sharoitida axloqiy o'zlikni anglash dramatismini kompleks idrok etishga bo'lgan intilishi bilan tavsiflanadi. Chuqur psixologik tahlil tamoyillarining qo'llanilishi qoraqalpoq nasrining badiiy-estetik imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Natijada adabiyotshunoslik tadqiqotlarining markaziy obyektiga qahramonning tashqi syujet voqealari yoki ijtimoiy faolligi emas, balki inson borlig'ining chuqur qatlamlarini ochib beruvchi murakkab va dinamik ichki dunyosi aylandi.

Qoraqalpoq nasrida psixologik paradigmani rekonstruksiya qilish zamonaviy adabiyotshunoslik diskursining eng muhim va bahsli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adib personajning ichki dunyosini badiiy ifodalash orqali nafaqat obrazni individuallashtiradi, balki tarixiy-madaniy davrning o'ziga xosligini belgilovchi keng ko'lami ijtimoiy-axloqiy ziddiyatlarni ham konseptual jihatdan anglaydi. Psixologik tahlilning turli usullarini integratsiyalash qoraqalpoq nasriga an'anaviy hikoyachilik doirasidan chiqib, badiiy realizm, hayotiy ishonarlilik va estetik yetuklikning sifat jihatidan yangi bosqichiga ko'tarilish imkonini berdi. Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi qoraqalpoq nasriy ijodida shaxs ichki dunyosi tasvirining o'ziga xos xususiyatlarini tizimlashtirish, psixologik tasvir vositalarini tanqidiy tahlil qilish, shuningdek, qoraqalpoq adabiyoti evolyutsiyasi va uning janr-uslubiy transformatsiyasida psixologizmning hal qiluvchi omil sifatidagi rolini ilmiy asoslashdan iboratdir ^[2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy diskursda shaxsning psixologik portretini tasvirlash muammosi o'zbek adabiyotshunoslik maktabi vakillarining fundamental ilmiy asarlarida tizimli ravishda yoritilgan bo'lib, ularning nazariy qarashlari adabiyotshunoslik tahlili uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Xususan, D. Quronovning "Adabiyot nazariyasi



asoslari" monografiyasida badiiy obraz, xarakter va psixologizm kategoriyalari konseptual jihatdan chuqur tahlil qilingan. Unda qahramon ichki dunyosining obyektivlashtirilishi muallif badiiy mahorati hamda asarning estetik yetukligini belgilovchi muhim mezon sifatida asoslanadi.

Shu bilan birga, I. Sulton o'zining "Adabiyot nazariyasi" nomli klassik asarida badiiy obrazlarning genezisi va xarakterlar tipologiyasi tamoyillarini sharhlar ekan, qahramonning ma'naviy olami matnning g'oyaviy-estetik salohiyati hamda ma'noviy arxitektonikasini ochib beruvchi eng muhim unsurlardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

O'z navbatida, Q. Yo'ldoshev "Badiiy tahlil asoslari" asarida personajning ichki fenomenologiyasini, uning emotsional dinamikasini hamda ular bilan bog'liq muallif konsepsiyasini adabiy asar tarkibida fanlararo yondashuv asosida o'rganish zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur ilmiy-nazariy qarashlar majmui qoraqalpoq nasri kontekstida psixologik tasvirning o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan konseptual tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi^[3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qoraqalpoq nasri evolyutsiyasi jarayonida shaxs psixologiyasi va uning ruhiy holatlari dinamikasini badiiy ifodalash muammosi fundamental adabiyotshunoslik konstantalaridan biri maqomini egalladi. Akademik adabiyotshunoslikda psixologizm subyektning ichki olamini, uning hissiy sohasi hamda chuqur tafakkur jarayonlarini har tomonlama badiiy qayta tiklashga xizmat qiluvchi kompleks estetik vosita sifatida talqin etiladi. Badiiy psixologizm usullaridan foydalanish muallifga nafaqat hayotiy haqiqatni yuksak ishonchlilik bilan aks ettirish, balki qahramon xarakterini belgilovchi murakkab shaxsiy ziddiyatlar tizimini ham ochib berish imkonini yaratadi. Qator nazariy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, mazkur hodisa personaj ongining mazmuniy qatlamlariga kirib borishni ta'minlovchi asosiy estetik mexanizm hisoblanadi. Qoraqalpoq nasriy diskursi kontekstida inson psixologiyasini badiiy qayta tiklash xarakterning ko'p bosqichli talqini orqali amalga oshiriladi. Bunda yozuvchining e'tibori voqealar zanjirini shunchaki bayon etishdan qahramonning aqliy va hissiy olamida kechayotgan yashirin jarayonlarni badiiy tiklashga ko'chadi. Bunday estetik strategiya obrazlarning hayotiyliigi, serqirraligi va antropologik ishonchlilikini ta'minlaydi. Natijada ekzistensial tashvishlar, ruhiy ziddiyatlar, axloqiy izlanishlar hamda intellektual refleksiya holatlari asarning g'oyaviy-badiiy mazmunining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib, uning estetik teranligi va ma'noviy ko'p qirraliligini ta'minlaydi.

Qoraqalpoq nasrida ichki monolog usuli qahramonning ma'naviy olamini ochib berishning eng samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Intrapersonal muloqot shakli bo'lgan ichki monolog yashirin kognitiv jarayonlar, latent affektlar va ruhiy holatlar dinamikasini bevosita ifodalash imkonini beradi. Mazkur narrativ texnika retsipient bilan hikoya subyekti o'rtasidagi estetik masofani qisqartirib, qahramonning psixoemotsional olamida yashiringan ma'nolarni chuqur germevtik talqin qilishga xizmat qiladi. Yozuvchi ichki dialog vositasida personajning ekzistensial qarorlar qabul qilish jarayonini yoritadi, uning qadriyatlariga asoslangan tanlovini ifodalaydi hamda asar koordinatalari tizimida fuqarolik va axloqiy pozitsiyasini shakllantiradi. Badiiy xarakterning shakllanishi jarayonida ichki monolog psixologik detallar bilan uyg'unlashib, matnning estetik yetukligi va badiiy qiymatini belgilovchi muhim omilga aylanadi^[4].

Diskursiv usullar bilan bir qatorda, qoraqalpoq nasrida inson ruhiyatini obyektivlashtirishning muhim vositalaridan biri portret tasviri hisoblanadi. Yuz ifodasi, nigoh, kinesika (tana harakatlari) hamda personajning tashqi qiyofasi uning ichki "Men"idagi chuqur metamorfozalarni aks ettiruvchi o'ziga xos "ko'zgu" vazifasini bajaradi. Ruhiy inqiroz, ekzistensial frustratsiya, hissiy ko'tarinkilik yoki jo'shqin shodlik holatlari tashqi belgilar orqali ifodalanib, portret detalini psixologik tavsifning kuchli vositasiga aylantiradi. Ichki dunyoning bunday vizualashtirilishi badiiy tasvirning ishonchlilikini oshirib, o'quvchiga qahramonning psixoemotsional qiyofasini tashqi va ichki belgilar uyg'unligi asosida yaxlit tasavvur qilish imkonini beradi.

Qoraqalpoq nasrida peyzaj nafaqat voqealar rivojining makon va zamon fonini yaratadi, balki personajning ichki holatini yorituvchi muhim badiiy vosita sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu orqali landshaft tasvirlari bilan shaxsning hissiy olami o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ta'minlanadi. Qoraqalpoq nosirlarining estetik paradigmasi ko'pincha psixoemotsional parallellik tamoyiliga asoslanadi. Unda tabiat inson qalbining ma'naviy ekvivalentiga aylanib, qahramon dunyoqarashidagi eng nozik o'zgarishlarni ifodalaydi. Xususan, peyzaj elementlari qat'iy funksional vazifani bajaradi: melanxolik kayfiyat, ichki iztirob yoki ekzistensial ruhiy kechinmalar kuzgi manzaralarning sokin va tushkun estetikasi, tabiiy ofatlar dinamikasi yoki cho'l landshaftining keskin qiyofasi orqali tasvirlansa, ruhiy yuksalish, katarsis va hissiy yangilanish bahorgi tabiatning hayotbaxsh manzaralari, yorug' makonlar hamda yorqin ranglar ustuvorligi orqali ifodalanadi. Tashqi va ichki olamning bunday uyg'unlashuvi matnning badiiy ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, ko'p qatlamli psixologik portret yaratishga xizmat qiladi. Natijada tabiat endi oddiy fon emas, balki badiiy psixologizmning faol tarkibiy unsuriga aylanadi va bu muallif niyatining ishonchlilikini hamda asarning estetik teranligini yanada kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpoq nasrida shaxs va ijtimoiy muhitning dialektik birligi psixologik tahlilning ustuvor kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur badiiy tadqiqotning o'ziga xosligi shaxsning ijtimoiy-madaniy institutlar, an'anaviy talablar, axloqiy me'yorlar va davr chaqiriqlari bilan to'qnashuvi natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlarni ochib berishdan iborat bo'lib, bu muqarrar ravishda personajning ichki qarama-qarshiliklarini shakllantiradi. Qoraqalpoq adiblari qahramonning axloqiy o'zligini anglashini, hayotga munosabatini hamda uzluksiz ma'naviy kamolotini badiiy tadqiq etish orqali inson xarakterining murakkab tabiatini asoslab, ichki ruhiy kurashni yuksak mahorat bilan tasvirlaydilar. Bu esa realistik metodning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tahlilda milliy ruh va shaxs psixologik tuzilishining uzviy bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qoraqalpoq nasri qahramonlarining refleksiyasi ko'pincha xalqning tarixiy taqdiri, uning aksiologik tizimi hamda madaniy merosi bilan belgilanadi. Shu sababli obrazning psixologik tasviri tor individual doiradan chiqib, butun bir xalqning mental qiyofasini ifodalovchi reprezentativ darajaga ko'tariladi. Qoraqalpoq adabiyotining milliy o'ziga xosligi aynan "Men" va jamiyat, shaxs va tarixiy taraqqiyot o'rtasidagi ko'p qirrali munosabatlarning badiiy talqinida yaqqol namoyon bo'ladi. Ichki monolog, portret detali, peyzaj ramziyligi va dialogik faollik kabi badiiy vositalarning uyg'unligi ijtimoiy muhit tasviri bilan mohirona integratsiyalashgan holda yozuvchilarga inson qalbining chuqur, ko'pincha yashirin qatlamlarini ochib berish imkonini yaratadi. Shunday qilib, qoraqalpoq nasrida personaj psixologizmining shakllanishi adabiy diskursning asosiy obyekti bo'lgan inson ichki dunyosini ishonchli, badiiy mukammal va teran aks ettiruvchi murakkab estetik jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpoq nasrida shaxsning psixologik tuzilishini badiiy qayta tiklash adabiy jarayon evolyutsiyasining yuksak bosqichini ifodalovchi badiiy mahoratning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Yozuvchilar qahramonlarning ichki holatlari, qadriyatlar tizimi va ekzistensial izlanishlari iyerarxiyasiga chuqur kirib borish orqali inson tabiatining murakkab va ziddiyatli qirralarini yuksak tahliliy aniqlik bilan tasvirlaydilar. Badiiy psixologizm bu jarayonda nafaqat mukammal xarakter yaratish vositasi, balki asarning g'oyaviy-estetik salohiyati va ma'no sig'imini sezilarli darajada kengaytiruvchi tizim hosil qiluvchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Zamonaviy adabiyotshunoslik diskursida psixologizm an'anaviy ravishda subyektning ichki fenomenologiyasini tadqiq etishning eng samarali metodlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Qoraqalpoq nasriy asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mualliflar shaxsning ma'naviy olamini badiiy qayta yaratishda ichki monolog, dialogik dinamika, portret tasviri, psixologik detal, peyzaj ramziyligi hamda muallif sharhini o'z ichiga olgan sintezlashgan badiiy vositalar tizimidan foydalanadilar. Mazkur vositalarning uyg'unligi qahramonlarning hissiy holatlari, kognitiv ziddiyatlari, intilishlari va kechinmalarini yuksak ishonchlilik hamda tabiiylik bilan ifodalash imkonini beradi. Bunday metodologik yondashuv adabiy obrazlarning hayotiy ishonarliligi, badiiy ta'sirchanligi va antropologik teranligini oshirib, qoraqalpoq nasrini inson ruhiy olamini chuqur tadqiq etuvchi yuksak badiiy makonga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ginzburg L.Ya. O psixologicheskoy proze. - Leningrad: "Xudojestvennaya literatura", 1977. - S. 443.
2. Bahadirova S. To'lepbergen Qayipbergenov hamda qoraqalpoq nasrida badiiy psixologizm muammolari. - Toshkent: "Fan", 1995. - B. 180.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1980. - 406 b.
4. Qayipbergenov T. Qoraqalpoq dostoni. Trilogiya. 2-kitob: Baxtsizlar. Roman. - Toshkent: "Sharq" NMAK, 2010. - B. 416.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(7)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.